

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XAYITBAYEV ABROR ISMOILOVICH**

**XORAZM VILOYATI VOHA LANDSHAFTLARI VA ULARNING  
EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING GEOGRAFIK ASOSLARI**

**11.00.01 - Tabiiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on geographical sciences**

**Xayitbayev Abror Ismoilovich**

Хоразм viloyati voha landshaftlari va ularning ekologik holatini

yaxshilashning geografik asoslari..... 3

**Хайитбаев Аброр Исмаилович**

Оазисные ландшафты Хорезмской области и географические основы

улучшения их экологического состояни..... 21

**Khaitbaev Abror Ismoilovich**

Oasis landscapes of Khorezm region and geographical foundations

for improving their ecological condition ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XAYITBAYEV ABROR ISMOILOVICH**

**“XORAZM VILOYATI VOHA LANDSHAFTLARI VA ULARNING  
EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”**

**11.00.01 - Tabiiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Gr312 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yarashev Quvondiq Safarovich**

geografiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Qo'ziboyeva Ozodxon Maxmudovna**

geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Alimkulov Nusratilla Raxmonkulovich**

geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 26-avgust soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 14-avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil 7-avgustdagi 14-raqamli reestr bayonnomasi).



**S.B.Abbasov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

**B.A.Meliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, geografiya fanlari bo'yicha PhD, dotsent

**Q.S.Yarashev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d. (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda “inson-tabiat” o‘rtasida munosabatlar natijasida vujudga kelayotgan tabiiy va antropogen jarayonlar hamda ular ta’sirida yuzaga kelgan noqulay shart-sharoitlarni bartaraf etish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bunday o‘zgarishlarga sug‘oriladigan yerlarning texnogen buzilishini, cho‘llar maydonining o‘zgarishini, tuproq degradatsiyasini, yerlarning meliorativ holatining yomonlashishini, erozion jarayonlarning kuchayishi, tuproq va o‘simlik degradatsiyasini, deflyatsiya kabi salbiy tabiiy geografik jarayonlar kiritish mumkin. Bu muammolarni oldini olishga xalqaro tashkilotlar ham katta e’tibor qaratishmoqda, jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturining 15-bandida “Quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to‘xtatish, bioxilma-xillikni yo‘qolishini oldini olish”<sup>1</sup> ga qaratilgan vazifalar belgilab olingan.

Dunyoda yerlardan xo‘jalikning turli maqsadlarida foydalanish, qishloq xo‘jalik yuritishda, meliorativ tadbirlarni olib borish, hududlarni turli xo‘jalik maqsadlarida tadqiq etish, qishloq xo‘jalik maqsadlarida baholash, sug‘oriladigan yerlarning texnogen buzilishini, ekologik holatning o‘zgarishini, tuproq va o‘simlik degradatsiyasini, erozion jarayonlarning kuchayib borishi kabi salbiy tabiiy geografik jarayonlar tezlashishini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida ekologik holatlarni aniqlash, ekologik vaziyatni baholash va optimallashtirishda hududlarning o‘ziga xosligidan kelib chiqib amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda ekologik muhitni sog‘lomlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, ekologik xavfsizlik va uni barqarorlashtirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 79-maqsadi “Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish” hamda 80-maqsadi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish”<sup>2</sup> yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, ekologik vaziyati murakkab va o‘ziga xos bo‘lgan Xorazm viloyati voha landshaftlarining ekologik sharoitini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan

---

<sup>1</sup>2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi // Internet havola: <http://www.uz/undp/org/content/Uzbekistan.ru>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi talablariga mos ravishda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. “Yer haqidagi fanlar”, V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Voha landshaftlarining shakllanishi va ularning xususiyatlari, sug‘orish ta’sirida landshaft komponentlarining o‘zgarishi, voha tuproqlarining o‘ziga xos xususiyatlari, landshaftlarni ekomeliorativ holatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarni xorijiy olimlardan C.Conrad, R.Morgan, M.Machwitz, D.Worster, A.S.Kostrowiki, G.Le Bas, M.Jamagne, D.Pimentel, S.Pimentel, G.Behardi, S.Fast, X.Ren, F.Milkov, V.A.Nikolayev, A.Chibilev, Z.Atayev, respublikamiz olimlaridan L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.Saidov, A.A.Abdulqosimov, A.A.Rafiqov, A.Rahmatullayev, S.B.Abbasov, X.Vahobov, A.Xojimatov, A.K.Urazbayev, K.M.Boymirzayev, A.A.Nazarov, Yu.X.Abduraxmonova, Q.S.Yarashev, O.M.Qo‘ziboyeva, B.A.Meliyev, B.B.Eshquvvatov, I.K.Mirzaxmedov va boshqalar shug‘ullanishgan. Xorazm viloyatining hozirgi voha landshaftlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar E.M.Murzayev, V.M.Chetirkin, L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.A.Rafiqov, V.A.Popov, A.A.Abdulqosimov, P.Baratov, A.K.Urazbayev, I.A.Hasanov, B.A.Bahriddinov, M.Shomuratov, T.Ollaberganov, Sh.Dusanova, M.Matchanov va boshqalarning ilmiy asarlarida berilgan.

Biroq, viloyatning voha landshaftlari alohida o‘rganilmagan. Bu hududning morfologik birliklarini ajratib tasniflash va kartalashtirish, ekologik holatini GATni qo‘llab tadqiq etishga oid tadqiqotlar ko‘lami ham qoniqarli darajada emas. Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi yuqoridagi kamchiliklarni to‘ldirishdan iborat.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Geografiya” kafedrasining “Quyil Amudaryo mintaqasidagi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Xorazm viloyati voha landshaftlari va ularni tashkil etuvchi voha geotizimlarini tadqiq etish, ekologik holatni baholash va yaxshilashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda kartalashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- voha landshaftlariga bag‘ishlangan turli ilmiy, tarixiy, kartografik manbalarni tahlil qilish;
- viloyatni landshaft komplekslari, tuproq sho‘rlanishi va ekomeliorativ holatini ifodalovchi turli mavzuli kartalarini yaratish;

- agrolandshaftlardagi ekologik vaziyatlar tahlilini masofaviy metodlarni qoʻllab tadqiq etish;

- antropogen omil taʼsirida sodir boʻlayotgan ekologik holatni yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Xorazm viloyati voha landshaftlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** esa inson taʼsirida roʻy berayotgan dinamik jarayonlar, ekologik vaziyatlar va ularni ekomeliorativ jihatdan barqarorlashtirish hamda yaxshilash masalalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda dala tadqiqoti, aerokosmik, taqqoslash, ekspeditsion, masofadan zondlash, GATga asoslangan kartografik, tizimli va qiyosiy tahlil, olingan statistik maʼlumotlarni grafiklar va jadvallarda tizimlash hamda umumlashtirish kabi bir qator usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- iqlim va suv resurslarining miqdor hamda sifat jihatdan oʻzgarishi sharoitida Xorazm viloyati tabiiy geografik jarayonlarining antropogen transformatsiyalanish tendensiyasini monitoring qilishning masofaviy usullari takomillashtirilgan;

- voha landshaftlarining vujudga kelish qonuniyatlarini aniqlash orqali GAT va masofadan zondlash texnikalarini integratsiyalash asosida voha landshaftlarining tasnifi olingan;

- birlamchi maʼlumotlar, GAT va masofadan zondlash materiallari asosida sugʻoriladigan yerlarining ekomeliorativ holatining (viloyat va tumanlar kesimida) vaqt va masofada oʻzgarish dinamikasi aniqlangan;

- Xorazm viloyati voha landshaftlarining 1:800000 masshtabli ekomeliorativ va ekomeliorativ holatni yaxshilash kartalari ishlab chiqilgan;

- Xorazm viloyati sugʻoriladigan yerlarining ekomeliorativ holatini yaxshilashga doir ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

- landshaftlardagi dinamik jarayonlarga inson taʼsiri aniqlangan;

- voha landshaftlarining ekologik holatini tavsiflovchi bir qator mavzuli kartalar yaratilgan;

- agrolandshaftlarda meliorativ sharoitni optimallashtirish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

- ekologik holatlarni GATni qoʻllab, masofadan tadqiq qilish metodologiyasi takomillashtirilgan;

- ekologik vaziyatlarni yaxshilashning geografik asoslari tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqot natijalarining ishonchliligi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazi, Xorazm viloyati gidrometeorologiya boshqarmasi, Chapqirgʻoq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiyasi, Xorazm viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi, Xorazm viloyati Sogʻliqni saqlash boshqarmasi, NASA xalqaro maʼlumotlar bazasiga tegishli Landsat-8, Sentinel-2A, MODIS sunʼiy yoʻldosh tizimlari kosmik suratlari va analitik

ma'lumotlari, yaratilgan kartalarni amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati landshaftshunoslikda antropogen, jumladan, voha landshaftlari haqidagi nazariyani to'ldirishga, agrolandshaft konsepsiyasiga doir, hududlarni masofadan tadqiq etish metodologiyasini takomillashtirishga doir bilimlarni boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishni bajarish davomida amaliyotga tavsiya etilgan ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan chora-tadbirlar Xorazm viloyati voha landshaftlarini ekologik-meliorativ jihatdan yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi. Vohalar tabiatidan oqilona foydalanish yo'l-yo'riqlarini ilmiy asosda amalga oshirish uchun muhim obyekt hisoblanadi. Tuzilgan kartalar esa ekologik holatni yaxshilashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xorazm viloyati voha landshaftlari va ulardagi ekologik vaziyatlarni yaxshilash bo'yicha olingan natijalar asosida:

iqlim va suv resurslarining miqdor hamda sifat jihatdan o'zgarishi sharoitida Xorazm viloyati tabiiy geografik jarayonlarining antropogen transformatsiyalanish tendentsiyasini monitoring qilishning masofaviy usulini takomillashtirishga doir natijalar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi 03-03/1-03/3-2885-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, GAT va masofadan zondlash orqali olingan ma'lumotlardan landshaftlar va ularning resurslaridan oqilona foydalanish hamda rejali tashkil etish imkonini bergan;

voha landshaftlarining vujudga kelish qonuniyatlari aniqlash orqali GAT va masofadan zondlash texnikalarini integratsiyalash asosida olingan voha landshaftlarining tasnifidan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi 03-03/1-03/3-2885-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, vohalarda sodir bo'layotgan tabiiy geografik jarayonlar dinamikasini tahlil qilish imkoniyati kengaygan;

birlamchi ma'lumotlar, GAT va masofadan zondlash materiallari asosida sug'oriladigan yerlarining ekomeliorativ holatining (viloyat va tumanlar kesimida) vaqt va masofada o'zgarish dinamikasidan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi 03-03/1-03/3-2885-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, masofaviy usullardan foydalanib sug'oriladigan yerlarda agromeliorativ tadbirlarni takomillashtirishga imkon bergan;

Xorazm viloyati voha landshaftlarining 1:800000 masshtabli ekomeliorativ va ekomeliorativ holatni yaxshilash kartalaridan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotiga foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi 03-03/1-03/3-2885-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, masofadan zondlash usullari asosida yaratilgan metodologiya orqali aniqlangan ekomeliorativ holatni o'zgarishini monitoring qilish usullarni takomillashtirishga imkon bergan;

Xorazm viloyati sug'oriladigan yerlarining ekomeliorativ holatni yaxshilashga doir ilmiy asoslangan chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi 03-03/1-03/3-2885-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ekomeliorativ holatni nazorat-tahlil qilishni takomillashtirishga va kelgusida ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda yuzaga keldigan muammolar yechiga yangicha yondashish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 2 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda, 1 tasi SCOPUS xalqaro ilmiy-texnik bazasiga kiruvchi konferensiyalarda, 10 ta xalqaro va respublika konferensiyalarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 166 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishi voha landshaftlari haqidagi nazariyani to'ldirishga, agrolandschaft konsepsiyasiga doir, hududlarni masofadan tadqiq etish metodologiyasini takomillashtirishga doir bilimlarni boyitishga, Xorazm viloyati voha landshaftlarini ekologik-meliorativ jihatdan yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi hamda tuzilgan kartalar esa ekologik holatni yaxshilashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'tgan asrda insoniyat taraqqiyoti va fan-texnika inqilobi natijasida yer yuzasida inson faoliyati natijasida yuzaga keltirgan landshaft komplekslari maydonining kengayib borishi o'ta kuchli darajada tezlashdi. Shahar, qishloqlarning ko'payishi va maydonning kengayishi, ekin maydonlarining keskin darajada ortib borishi, avtomobil va temir yo'llarning barpo etilishi kabi omillar ta'sirida tabiiy landshaftlar o'rnida inson qo'li, aqlu-zakovati bilan yaratilgan landshaftlar barpo etildi. Ularning Yer yuzasida keng tarqalganligi

landshaftshunoslikning alohida tarmog‘i-antropogen landshaftshunoslik fanining vujudga kelishiga va uning tezlik bilan rivojlanishiga olib kelmoqda.

Keyingi yillarda antropogen landshaft komplekslarini o‘rganishga va kartalashtirishga bag‘ishlangan juda ko‘plab ilmiy asarlar vujudga keldi. Bu asarlarda Rus tekisligi, Kavkaz, Qrim, O‘rta Osiyo va boshqa regionlardagi antropogen landshaftlarni tadqiq etish muammolari ilgari suriladi. Masalan, V.I.Fedotov O‘rta Rus balandligi o‘rmon-dasht zonasida vujudga kelgan texnogen landshaftlarni, G.Ye.Grishankov Tog‘li Qrimdagi, N.A.Gvozdeskiy va A.Ye.Fedinalar Kavkaz o‘lkasidagi antropogen landshaftlarni, A.A.Abdulqosimov O‘rta Osiyo voha landshaftlarini, A.Xojimatov O‘zbekiston voha landshaftlarini, Yu.Abduraxmonova va A.Raxmatullayev O‘rta Zarafshon, I.K.Mirzaxmedov Qo‘qon voha landshaftlarini, M.G.Nazarov Qashqadaryo havzasi antropogen landshaftlarini tadqiq etish ishlarni bajargan.

O‘rta Osiyoda antropogen geotizimlar orasida voha landshaftlari alohida o‘rinni egallaydi. Voha landshaftlarini o‘rganish, ularning strukturasi aniqlash, tasniflashtirish va kartalashtirish geograflar oldida turgan muhim va yaqin kelajakda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan muammolardandir. Chunki, O‘rta Osiyoning antropogen landshaft majmualari orasida sug‘oriladigan dexqonchilik landshaftlari katta hududlarni egallaydi. Sug‘oriladigan yerlarning tashqi ko‘rinishi va tuzilishi juda xilma-xildir. Bunday hududlarni sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik landshaftlari yoki agrolandshaftlar deb ataymiz va ularga paxta dalalari, bog‘lar, uzumzorlar va tut plantatsiyalari hamda boshqa ekinlarning birlashmasidan iborat yerlar misol bo‘ladi. Sug‘oriladigan agrolandshaftlarda inson xo‘jalik faoliyati tufayli tuproq va o‘simlik qoplaminig, iqlim, yer osti suvlarining, tuproqning kimyoviy va fizik tarkibi hamda boshqa komponentlarning sifat va miqdor jihatdan turlicha shakllanish jarayonlari sodir bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Voha landshaftlari va ularni tadqiq etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida voha landshaftlari antropogen landshaftlarning bir turi sifatida qaralib, uning tushuncha va mazmun-mohiyati ochib berilgan. Tadqiqot ishida qo‘llanilgan metodlar, shu jumladan GAT ga asoslangan metodlarni landshaftlarni tadqiq etishdagi ahamiyati, afzalliklari, uning tarkibiy qismlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Ushbu metodlardan foydalanish samaradorligi, sun‘iy yo‘ldoshlar, uchuvchi jismlardan olingan kosmik va aerosuratlar tavsifi, ularni qayta ishlash texnologiyasi va dasturlari hamda shuning natijasidan amaliyotda foydalanish masalalariga batafsil to‘xtalangan. Antropogen landshaftlarning barqarorligi, dinamikasi, transformatsiyalanishi va modifikatsiyalanishi, ushbu jarayonlar sodir bo‘lishi shart-sharoitlari, sabab va omillariga to‘xtalib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning **“Xorazm viloyatida voha landshaftlarining shakllanishi va tabiatining asosiy xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida hozirgi landshaft komplekslarini tadqiq etish va voha landshaftlarini vujudga kelishi masalalari yoritilgan. Xorazm viloyati hududi geologiyasi, reliefi va hozirgi davr yotqiziqlarining tarqalishi hamda ularning voha landshaftlarini vujudga kelishiga ta’siri keltirib o‘tilgan. Voha landshaftlarini vujudga kelishida iqlimiy, gidrogen omillar ta’siri hamda tuproq-ekologik sharoitni o‘zgarishiga sug‘orishning ta’siri

yoritib berilgan. Voha landshaftlarida flora va faunaning antropogen omillar ta'sirda transformatsiyalanishi, ularning hozirgi holati va ularni muxofaza qilish, antropogen ta'sir kuchini kamaytirish va optimallashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Antropogen landshaftlarning morfologik tuzulishi, ularning xususiyati, bir-biridan ajralib turuvchi tomonlari, rivojlanishi hamda boshqa morfologik qismlar rivojlanishidagi o'rni haqida so'z yuritilgan.

Respublikamizning qishloq xo'jalik, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan hududlaridan biri bu Xorazm voha landshaftlaridir. Ushbu hududda tekislik landshaftlari katta maydonlarni egallaydi. Bunday tabiiy sharoit tuproqlarning o'ziga xos suv-tuz rejimini belgilaydi. Shu sababli iqtisodiy jihatdan samarali usullarni qo'llagan holda voha landshaftlarini landshaft-meliorativ holatni baholash, komponentlarning dinamik o'zgarishini aniqlash kabi masalalar hozirgi landshaftshunoslik faning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Viloyat hududining aksariyati kaynazoy erasining to'rtlamchi davr hozirgi zamon yotqiziqlaridan tashkil topgan. Viloyatning chekka janubiy Qoraqum va Qizilqum cho'li bilan chegaradosh qismlarida neogen yotqiziqlari uchraydi. Viloyatning Amudaryo o'ng qirg'og'idagi ayrim hududlarida orollar tarzida mezazoy erasining bo'r davri va paleogen davrining yotqiziqlari tarqalgan. Viloyat hududi Turon platformasining (plitasining) bir qismi sanaladi. Million yillar davomida bu hudud dengiz tagida bo'lgan. Keyinchalik ularning chekinishi tufayli quruqlikka aylangan. Viloyat hududida kristal, dengiz va allyuvial cho'kindi jinslar keng tarqalgan.

Viloyatning eng qadimiy relief shakllarini tabiiy holatini o'zgartirishda inson xo'jalik faoliyatining roli nihoyatda katta. Ayniqsa, bir necha yillardan beri sug'orma dexqonchilik bilan shug'ullanib kelayotgan insonning xo'jalik faoliyati Xorazm vohasida muhim relief hosil qiluvchi omilga aylangan. Inson o'zining ko'p asrlik xo'jalik faoliyatida Amudaryoning qadimiy deltasidagi yerlarni o'zlashtirish uchun tekislagan, balandlik joylarni kesib, jarlarni to'ldirgan magistral kanallar, ariqlar va zovurlar qazigan. Ekin miqdorlarini suv toshqinidan saqlash uchun daryo sohillarida bir necha kilometr ga cho'zilgan dambalar qurgan. Oqibatda Xorazm viloyati voha landshaftlari yer yuzasining katta qismida tabiiy holdagi relief shakllari o'zgarib, ularning o'rni antropogen relief shakllari egallagan.

Xorazm viloyati landshaftlarda qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan bo'lib, sug'orish o'simliklar rivojlanishi bilan birgalikda vohalar iqlimining yumshoq bo'lishi, kontinentalligi va quruqligi jihatlarining atrofdagi cho'l hududlarga taqqoslaganda kamayishiga olib keladi. Intensiv bug'lanish vohalarda havoning mutlaq va nisbiy namligini oshiradi, daraxt-buta o'simliklarining ko'pligi esa shamolning tezligini keskin pasaytiradi. Viloyat vohalarida issiqlikning ko'p qismi namlikning bug'lanishiga sarf bo'lishi oqibatida butun vegetatsiya davrida havo harorati cho'lga nisbatan birmuncha past bo'lib, bu farq  $3^{\circ}\text{C}$  gacha yetishi mumkin. Shunga bog'liq holda vohalarda harorat inversiyasi kuzatilib, bu sutka davomida intensiv sug'oriladigan maydonlarda ro'y beradi.

Xorazm viloyati voha landshaftlari iqlim xususiyatlari uning Turon pasttekisligining markaziy qismida joylashganligi, okeanlardan uzoqligi, orografik to'siqlarning yo'qligi, keskin kontinentalligi, qishining sovuqligi, yozning

issiqligi, serquyoshligi va quruqligi bilan belgilanadi. Xorazm viloyati hududida qishda shimoli-sharqiy tomondan esuvchi havo massasi hukmronlik qiladi. Bu yerda O'zbekistonning boshqa mintaqalariga nisbatan qish ancha sovuq bo'ladi. Yanvarning o'rtacha harorati Xivada  $-4,5^{\circ}\text{C}$ , Urganchda  $-5,1^{\circ}\text{C}$  ga teng. Minimal mutlaq havo harorati  $-30^{\circ}\text{C}$  dan  $-33^{\circ}\text{C}$  gacha o'zgarib turadi. Shimoli-sharqdan esuvchi havo massasining ta'siri oktabr oyidan may oyigacha davom etadi. May oyidan boshlab shimoliy va shimoli-g'arbiy havo massasi esa boshlaydi va u sentabr oyigacha davom etadi. Bu paytda janubdan mahalliy tropik havo massasi ham ta'sir etib, havo haroratining keskin ko'tarilib turishiga ta'sir ko'rsatadi. Viloyatning shimoliy va sharqiy tomonlarida tabiiy to'siqlarning yo'qligi Arktikadan va Sibirdan sovuq havo massalarining bemalol kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Amudaryoning qadimgi deltasida inson xo'jalik faoliyati tufayli bunyod etilgan. Xorazm viloyati voha landshaftlari, jumladan agrolandschaftlarini suv bilan ta'minlashda irrigatsion inshootlar qurilgan. Har bir sekundiga  $100\text{ m}^3$  dan ortiq suv oqadigan Shovot, G'ozovot, Polvon, Toshsaqa singari kanallar o'z suvini Amudaryodan oladi. Bu kanallarga olinadigan suvning miqdori yoz oylarida  $800\text{ m}^3/\text{sek.}$  ga yetadi. Viloyat hududida inson qo'li bilan bunyod qilingan ko'plab kanallar va katta-kichik ariqlar mavjud. Shunga mos holda, ushbu irrigatsiya inshootlari yordamida sug'orish ta'sirida agrolandschaftlarda turli xil o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Xorazm viloyati voha landshaftlarining tuproq qoplamida sodir bo'layotgan o'zgarishlardan ikkinchisi yer osti suvlari sathining keskin pasayishi va Amudaryo suvining kamayishi tufayli keng tarqalgan gidromorf tuproqlar maydonining qisqarishi va avtomorf tuproqlar maydonining orta borishidir. Bu jarayon botqoq, o'tloq-botqoq, o'tloq va hatto o'tloq-taqir hamda o'tloq-sho'rxok tuproqlarning degeradatsiyalanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Tuproqlarning evolyutsion o'zgarishi va ularning ketma-ket almashinishi quyidagi tartibda amalga oshadi: yosh allyuvial tuproqlar, allyuvial-o'tloq tuproqlar, o'tloq-sho'rxok tuproqlar, o'tloq-sho'r tuproqlar, taqirsimon o'tloq-bo'z tuproqlar, taqirsimon bo'z tuproqlar.

Xorazm viloyati voha landshaftlarida landshaft hosil qiluvchi asosiy o'simliklar turi gidrofit, gigrofit, galofit va psammofitlardan tashkil topgan bo'lib, ularning namlikni sevuvchi aksariyat formatsiyalari so'nggi yillarda cho'llanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunday jarayonning vujudga kelishi Xorazm viloyatida yer osti suvining kamayishi, tuproqlarning sho'rlanish darajasining ortishi va Orol dengizi suvining kamayishi bilan bevosita bog'liq. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Amudaryo deltasida o'simliklarning degradatsiyalanishi 1950 yillardan boshlangan. Ammo, tuproqlarning kuchli sho'rlanishi tufayli vujudga kelgan ekologik muhitda yulg'un formatsiyalari jing'il formatsiyalarini siqib chiqarmoqda. Demak, bunday hodisalar Amudaryo deltasi hududida cho'llanish jarayonini hozirga qadar ham to'xtovsiz davom etib kelayotganidan dalolat beradi. Orol dengizi bilan paradinamik aloqadorlikda bo'lgan Xorazm viloyati voha landshaftlarining yer osti suv sathi keskin pasayib, avtomorf rejim mexanizmi kuchaya bordi. Sabab-oqibat aloqadorligi tufayli vujudga kelgan bunday vaziyat Xorazm viloyati voha landshaftlarining barcha hududida

cho'llanish jarayonini yanada ham faollashuviga shart-sharoit yaratib berdi. Shuning uchun o'simliklarning degradatsiyalanish jarayoni ularning hamma formatsiyalarida, shuningdek antropogen voha landshaftlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. To'qayzorlarning cho'llanish jarayoniga tabiiy omillardan tashqari antropogen omillarning ham ta'siri katta.

Xorazm viloyati hayvonot dunyosini ekologik sharoitga va ekotizimlarga moslashib tarqalgan bir qator fauna komplekslariga ajratish mumkin. Bular daryo tarmoqlari, ko'llar, qayir to'qayzorlari, qurib qolgan ko'llarning pastqam sho'rxoklari, qum massivlari, qoldiq tepaliklar va voha ekotizimlari bo'yicha tarqalgan fauna komplekslaridir. Amudaryo suvining kamayishi va Orol dengizi suv sathining pasayishi grunt suvi yuzasining keskin pasayishiga, ko'plab ko'llarning qurib qolishiga, tabiiy komplekslarning barqarorligining buzilishiga, to'qayzorlar va qamishzorlar maydonining kamayishiga, tuproqlarning sho'rlanish darajasining oshishiga sabab bo'ladi. Oqibatda viloyatning hayvonot olami uchun qulay sharoitlar shakllantiruvchi ekotizimlar degradatsiyalashib, ekologik vaziyat keskinlashdi. Shunday qilib, keyingi yillarda viloyatda vujudga kelgan ekologik muhitning salbiy tomonlari hayvonot olamiga va inson salomatligiga ta'sir eta boshladi. Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan mo'yna beruvchi hayvonlar soni, baliqlarning mahsuldorligi keskin kamaydi, fauna komplekslari miqdor va tur jihatdan kambag'allashdi.

Xorazm viloyati hududi xilma-xil landshaftdan tashkil topgan bo'lib, ular bir-biridan tuprog'i, o'simligi, geologik, gidrogeologik, geomorfologik tuzilishlari va antropogen xususiyatlari bilan farq qiladi. Bular quyidagilar: 1. Sulton Uveys tog'larining davomi bo'lgan Yumurtog' landshafti; 2. viloyatning ichki qismida orollar tarzida uchraydigan kichik-kichik eol-qumli landshaftlar; 3. turli o'simlik formatsiyalaridan tashkil topgan to'qay landshaftlari; 4. qamishzorlardan iborat bo'lgan qayir landshaftlari; 5. sug'oriladigan allyuvial-o'tloq tuproqlardan iborat bo'lgan delta tekislik landshafti; 6. delta tekisliklaridagi sho'rxok landshaftlar; 7. qurib qolgan landshaftlar; 8. tashlama suvlar bilan to'yinadigan ko'l-akval landshaftlar; 9. daryoning o'ng qirg'og'idagi Qizilqum eol-qumli cho'l landshafti.

Xorazm viloyati hududidagi tabiiy landshaftlarning dinamik rivojlanish, makon va zamonda tadrijiy o'zgarib borishi hamda yuz berayotgan cho'llanish jarayonlarini tadqiq etib, ularni har tomonlama tahlil qilishda tarixiy manbalar, aerokosmik fotosuratlar, topografik kartalar, turli xil adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar va dalada olib borilgan kuzatish natijalariga asoslanib biz viloyat hududi voha landshaftlarini 2 ta joy tipiga: qadimiy delta voha joy tipi va to'qay voha joy tipiga ajratdik.

O'z navbatida qadimiy delta voha joy tipini quyidagi urochisha tiplariga ajratib chiqdik: 1. qadimdan madaniylashtirilgan va sug'oriladigan o'rtacha sho'rlangan o'tloq tuproqli agrolandshaftlar; 2. kuchli madaniylashtirilgan va sug'oriladigan sho'rxok botqoq-o'tloq tuproqli agrolandshaftlar; 3. Dovdanning o'zanbo'yi yotqiziqlaridagi sug'oriladigan kam sho'rlangan o'tloq tuproqli agrolandshaftlar; 4. Dovdanning o'zan yotqiziqlaridagi o'rtacha madaniylashtirilgan, sug'oriladigan kuchli sho'rlangan allyuvial o'tloq tuproqli agrolandshaftlar; 5. Daryoliqning o'zanbo'yi yotqiziqlaridagi o'rtacha

madaniylashtirilgan sug'oriladigan sho'rtob o'tloq tuproqli agrolandshaftlar; 6. Daryoliqning o'zan yotqizilaridagi o'rtacha madaniylashtirilgan, sug'oriladigan kuchli sho'rlangan o'tloq-botqoq tuproqli agrolandshaftlar; 7. texnogen elementlardan tarkib topgan irrigatsion landshaft komplekslari; 8. delta tekisligining o'tloq tuproqlarida barpo etilgan tut plantatsiyalari; 9. ekin maydonlarini himoya qiluvchi ixotazorlar; 10. deltaning qurib qolgan ko'l botiqlaridagi sho'rxok yerlarni qoplab olgan sho'ra formatsiyali urochishalar tipi; 11. Dovdan va Daryoliqning quruq o'zanlaridagi sho'r tuproqlarni qoplab olgan galofit o'simlikli urochishalar tipi; 12. qadimiy delta tekisligidagi o'tloq-taqir tuproqli va jing'il-yantoq formatsiyali urochishalar tipi.

To'qay voha joy tipini esa quyidagi urochisha tiplariga ajratdik: 1. pastki qayirdagi sug'oriladigan allyuvial tuproqlarda tashkil topgan agrolandshaftlar; 2. pastki qayirdagi sug'oriladigan botqoq tuproqlarda tarqalgan kuchli namlangan agrolandshaftlar; 3. o'rta qayirdagi sug'oriladigan o'tloq tuproqlarda rivojlangan agrolandshaftlar; 4. o'rta qayirdagi sug'oriladigan kam sho'rlangan o'tloq-botqoq tuproqlarda shakllangan agrolandshaftlar; 5. o'rta qayirning pastqam joylaridagi sug'oriladigan botqoq-o'tloq tuproqlarda vujudga kelgan agrolandshaftlar; 6. baland qayirning sug'oriladigan o'rtacha sho'rlangan o'tloq tuproqlarida keng tarqalgan agrolandshaftlar; 7. baland qayirning sug'oriladigan taqirsimon o'tloq tuproqlarida barpo etilgan agrolandshaftlar; 8. qayirning barcha hududlari uchun xarakterli bo'lgan mevali bog', tut plantatsiyalari va manzarali daraxtlardan tashkil topgan agrolandshaftlar.

Dissertatsiyaning **“Xorazm viloyati voha landshaftlarining ekologik holati va ularni yaxshilashning geografik asoslari”** deb nomlangan uchinchi bobida voha landshaftlarida ekologik holat tavsifi, sug'oriladigan agrolandshaftlarni hozirgi meliorativ holati va tuproq sho'rini kamaytirish masalalari, voha landshaftlari ekologik holatini GAT yordamida tadqiq etish, voha landshaftlarida ekologik vaziyatni yaxshilashni geografik asoslari kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Xorazm viloyati voha landshaftlarining tuproqlarini sho'rlanishiga yer osti suvlari sathi va kimyoviy tarkibining ham ta'siri katta. Amudaryo o'zani va qadimdan sug'oriladigan maydonlarning yer osti suvlarini minerallashtirish darajasi 1-3 g/l dan 3-5 g/l gacha o'zgarib boradi, yangidan sug'oriladigan maydonlarda esa bu ko'rsatkich 5-10 g/l gacha yetadi. Ular kimyoviy tarkibiga ko'ra sulfatli, xlorid-sulfatli, natriyli, natriy-xloridli tuzlar hisoblanadi. Bu tuzlar ham vohaning sug'oriladigan tuproqlarini qayta sho'rlanishiga o'z hissasini qo'shib turadi. Viloyat hududi bo'yicha kuzatuv olib boriladigan quduqlarga tegishli ma'lumotlar asosida ArcGIS dasturida IDW interpolatsiya metodini qo'llagan holda yer osti suvlarining o'rtacha ko'p yillik sathi karta sxemasi ishlab chiqildi.

Xorazm viloyati voha landshaftlarida sug'oriladigan tuproqlarning sho'rlanish darajasi yildan yilga oshib, meliorativ holati yomonlashib, suv tanqisligi kuchayib, cho'llanish jarayoni faollashib borishi viloyat hududida yetishtirilayotgan madaniy ekinlarning hosildorligini tadrijiy kamayib borishi va yalpi hosilning umumiy miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Viloyat sug'oriladigan maydonlari sho'rlanish darajasiga tegishli ma'lumot va ko'rsatkichlar asosida 3 ta (kam, o'rtacha va kuchli) tasnif bo'yicha alohida karta sxemalar ishlab chiqildi.

